



YAKKAXON QO'SHIQCHILIKDA MUSIQIY ASARNI TALQIN ETISH VA IJROCHILIK MAHORATINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

1 Tojiboyev Sardor O'ktam o'g'li



ABSTRACT

Mazkur maqolada yakkaxon qo'shiqchilikda musiqiy asarni badiiy talqin etish hamda ijrochilik mahoratini rivojlantirishga ta'sir etuvchi asosiy omillar ilmiy-pedagogik nuqtai nazardan tahlil qilingan. Musiqiy asarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, asar matni va musiqiy jummalarni mazmunan anglash, nafasni to'g'ri boshqarish, diksiya, artikulyatsiya, intonatsiya va emotsional ifoda vositalarining ijro sifatiga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, vokal ijrochilikda badiiy obrazni yaratish, musiqiy tafakkurni rivojlantirish hamda talabalarning kasbiy kompetensiyalarini shakllantirishda zamonaviy pedagogik yondashuvlarning ahamiyati asoslab berilgan. Tadqiqot natijalari oliy musiqa ta'limi tizimida vokal fanlarini o'qitish metodikasini takomillashtirishga xizmat qiladi.



KEYWORDS

yakkaxon qo'shiqchilik

musiqiy asar

badiiy talqin

vokal ijrochiligi

ijrochilik mahorati

musiqiy jumla

diksiya

artikulyatsiya

intonatsiya

nafas texnikasi

MAQOLA MATNI

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros

ilmiy-tadqiqot instituti ilmiy xodimi

Talaba musiqiy asarni o'rganish jarayonining dastlabki bosqichida uni umumiy holda idrok etadi. Bu jarayonda u asarning she'riy matni, g'azali, uslubi, xarakteri, asosiy mazmuni, tonalligi va boshqa jihatlarini ko'rish, eshitish, ichki sezgi hamda ovoz apparati orqali his qiladi. Dastlab ijrochi asarning mayda detallariga chuqur kirib bormasdan, uni yaxlit badiiy obraz sifatida qabul qiladi. Aynan shu bosqichda asarning umumiy ruhiyati va emotsional ta'siri ijrochi ongida shakllana boshlaydi.

Ikkinchi bosqichda esa talaba o'zining ijrochilik fikrini amaliy jihatdan ro'yobga chiqarishga kirishadi. Bu jarayonda u turli ijro usullaridan foydalanib, asarning texnik va badiiy tomonlarini puxta o'rganadi. Jumladan, ovozning sadolanishi, so'zlarning aniq talaffuzi, og'iz artikulyatsiyasi, bo'g'inlarning to'g'ri taqsimlanishi, metroritm, sur'at, dinamika, agogika va ashula jumlarining ifodaviyligi ustida alohida ishlaydi. Har bir musiqiy jumla va matn bo'lagi bir necha bor takroriy mashq qilinib, ijroning mukammallashishiga erishiladi. Shu tariqa ijrochi asarning ichki mazmunini chuqurroq anglab, uni badiiy jihatdan boyitishga intiladi.



Uchinchi bosqich ijodiy jarayonning eng murakkab va mas'uliyatli davri hisoblanadi. Bu bosqichda ijrochi avvalgi tajribalariga, eshitish va sezgi omillariga tayangan holda asarni to'liq shakllangan badiiy obraz sifatida tasavvur qiladi. Endilikda asarning barcha qismlari yagona badiiy yaxlitlikka birlashadi. Ijrochi musiqiy asarning mazmuni, emotsional ta'siri va badiiy g'oyasini mukammal his etgan holda uni tinglovchiga yetkazishga harakat qiladi.

Tasavvur inson bilish jarayonining boshlang'ich bosqichlaridan biri bo'lib, bosh miyada analiz va sintez jarayonlari asosida shakllanadi. U tafakkurdan farqli ravishda ijrochining ongida oldindan aks etadigan badiiy tushunchalar tizimini hosil qiladi. Tasavvur barcha ijodiy faoliyat turlariga xos bo'lib, ayniqsa musiqiy ijrochilikda muhim o'rin egallaydi. Ijrochi asarni avvalo ichki his va tasavvur orqali anglaydi, keyin esa uni amaliy ijroga aylantiradi.

Badiiy idrok va tahlil asosida malakaviy ijro ko'nikmalari shakllanadi. Bu ko'nikmalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:



Tasavvur natijasida hosil bo'lgan obrazlar bosh miyaga axborot sifatida yetib boradi va u yerdan butun organizmga tegishli buyruqlar uzatiladi. Natijada reflektor harakatlar, ya'ni ovoz apparati, nafas, eshitish va boshqa ijro organlari faoliyati uyg'un holda ishga tushadi. Shu jarayon orqali ijrochi musiqiy asarni texnik va badiiy jihatdan mukammal ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Asarni jumalarga bo'lib ishlashda har bir asarda ovozlar taqsimlanadi. Bularga birinchi ovoz asarning melodiysi ya'ni asarning ohanggi yoki ritmik ovozlari asarning shakl jihatidan dastlabki qismi tushunilib o'sha qismi yuqorida qayd etilgan guruhlariga bo'linib ishlanadi. Bundan maqsad asarni talabalar matnini yoki ritmik ko'rinishi to'liq o'zlashtirishdir.

Asarning musiqiy jumalari ustida ishlash yakkaxon ijrochilik jarayonining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, asar tarkibidagi mukammal tuzilgan musiqiy jumalarni unison tarzda ijro etishga qaratilgan mashqlar asarni puxta o'zlashtirishda katta amaliy yordam beradi. Musiqiy jumalarni alohida guruhlariga ajratib o'rganish ijrochilarga asarning tuzilishi, mazmuni va badiiy xususiyatlarini chuqurroq anglash imkonini yaratadi.



Har bir musiqiy jumla ijrochining ovoz imkoniyatlari, diapazoni va individual ijro uslubidan kelib chiqqan holda o'zlashtiriladi. Shu sababli ijro jarayonida ovozlarni to'g'ri taqsimlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ovoz diapazoni, tembr xususiyatlari va ijrochilik mahorati hisobga olinib, har bir ijrochiga mos partiyalar belgilanadi. Bu esa ijroning tabiiy, ravon va badiiy jihatdan mukammal chiqishini ta'minlaydi.

Birgalikdagi ijroda uyg'unlikni saqlash asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Ijrochilar barcha musiqiy va texnik jihatlariga amal qilgan holda asarning badiiy g'oyasini tinglovchiga yetkazishga harakat qiladilar. Har bir musiqiy jumlaning xarakteri, emotsional mazmuni va ifoda usullari oldindan kelishib olinadi. Bu jarayonda jumalarning boshlanishi, tugashi, nafas olish joylari, urg'ular va dinamik o'zgarishlar ustida sinchiklab ishlash katta ahamiyatga ega.



Ijrochilikda “nafas yo‘li” atamasi muayyan tovush yoki ifodaviy usulga erishish uchun qo‘llaniladigan ijro texnikalarini anglatadi. Musiqiy asarni ijro etishda turli nafas usullaridan foydalanish asarning mazmuni va xarakteriga bog‘liq holda tanlanadi. To‘g‘ri nafas olish va uni me‘yorida taqsimlash ovozning ravonligi, jarangdorligi hamda musiqiy jumalarning yaxlit ijro etilishiga yordam beradi.

Asarning umumiy ijrosi davomida har bir ovozning badiiy jihatdan qanchalik maqsadga muvofiq va ishonarli chiqishi yaqqol namoyon bo‘ladi. Shu bois ijrodan oldin barcha qismlarning nota matnlari diqqat bilan tahlil qilinishi zarur. Nota matnidagi sur‘at, dinamika, urg‘u, pauza va boshqa ijrochilik belgilariga bir xil yondashuvni shakllantirish ansamblning uyg‘un va mukammal ijrosini ta‘minlaydi. “Yakkaxon qo‘shiqchilik” fani darslarida asarlarni o‘rganish va ularni tahlil qilish bir necha bosqichlarda amalga oshiriladi. Buni shartli ravishda uch bosqichda ko‘rib chiqishimiz mumkin:

1-bosqich. Asar haqida qisqacha kirish so‘zi.

- *asar nomi (mavzusi) haqida ma‘lumot berish. Bunda folklor asarini tarixiy, siyosiy-ijtimoiy mavzuga daxldorligi nazarda tutiladi;*

- *asarning g‘oyaviy-badiiy mazmuni, asar matn jihatiga ta‘rif beriladi; - asar harakteri-sho‘x, lirik, o‘yin-raqs, tantanali (madh etuvchi, sharaflowchi), hajviy, hazil, marsh;*

- *asar mualliflari haqida ma‘lumotlar, bunda she‘r va musiqa (kuy) mualliflari hayoti, ijodiy faoliyati, asar yaratilgan davri haqidagi ma‘lumotlarga urg‘u beriladi;*

- *marosim yoki nomarosim qo‘shiq ekanligi xususida ham gapirib o‘tish mumkin.*

2-bosqich. (Asosiy bosqich). Musiqiy nazariy tahlil.

Bunda quyidagi komponentlarga to‘xtalib o‘tiladi.

- *asar janri;*

- *tuzilishi (shakli);*

- *ifoda vositalari;*

- *asar tempi;*

- *o‘lchovi, ritmik xususiyatlari;*

- *asar jamoa yoki yakka ijro uchun mosligi;*

- *ovoz diapazonlari, tembri kabilarga ta‘rif beriladi.*

3-bosqich. Asar o‘qituvchi tomonidan ijro etiladi yoki mavjud qo‘shiq mp3 varianti qaytadan yaxlit tinglanadi va taa’surotlar yuzasidan savol-javob, suhbat o‘tkaziladi.

-savol-javob orqali talabani musiqiy-nazariy ma‘lumotlarni qay darajada o‘zlashtirilganliklari aniqlanadi;



- mustaqil topshiriqlar beriladi. Talaba tomonidan asar bir necha marotaba tinglanadi.

Asar tahlili asar haqidagi umumiy ma'lumotlar berishdan boshlanadi dedik. Asar haqida talabalarda muayyan tasavvur, tushuncha hosil qilish uchun asar yaratilgan davr (har bir asar ma'lum davr siyosiy-ijtimoiy voqeiliklarni, biron bir marosimni, madaniy, ma'rifiy, siyosiy manzara-holatlarini aks ettiradi) kuy-qo'shiq ijodkorlarning hayoti, faoliyati va eng asosiysi asar g'oyaviy-badiiy mazmuni haqidagi ma'lumotlarga o'rin bo'ladi.

Qo'shiq kuylash faoliyati asosan yakka kuylashga asoslanganligi uchun o'rganiladigan asar yakka ijrochilik uchun mo'ljallangan bo'lsa asar haqida hududiy local xususiyatlardan kelib chiqib tahlil etiladi.. Musiqiy asarni adabiy matni tahlil qilinadi. Bunda uning mazmuni, g'oyasi, poetik matnning qanday adabiy janrga mansubligi (*she'r, g'azal, qasida, mumtoz she'riyat, hajviy, satirik va hokazo*) qisqartirilgan yoki to'liq, so'z va kuyning sinxronligi (uyg'unligi) kabi xususiyatlar haqidagi ma'lumotlarga urg'u beriladi. Musiqa asarini tahlil qilishning ikkinchi asosiy bosqichidagi vazifalar asosan talabalarni musiqani nazariy jihatdan o'zlashtirishlariga qaratiladi. Bu jarayonda talabalar musiqa tinglab, uni tahlil qilishlari natijasida musiqiy-nazariy bilimlarini yanada mustahkamlab, musiqani ongli idrok etish ko'nikma va malakalarini ham rivojlanib boradi.

Asar matnini ifodali ijro etishda jummalarning badiiy va emotsional talqinini rivojlantirish yakkaxon qo'shiqchilik san'atining muhim jihatlaridan biri hisoblanadi. Qo'shiq ijrosida musiqiy ohang bilan bir qatorda matnning mazmunini chuqur his etish va uni tinglovchiga ta'sirchan yetkazish ijrochidan katta mahorat talab qiladi. Har bir musiqiy jumla asarning umumiy g'oyasi va badiiy obrazini shakllantiruvchi asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi. Shu sababli jummalarni ifodali talqin qilish ijroning badiiy mukammalligini ta'minlaydi.

Asar matni ustida ishlash jarayonida ijrochi avvalo she'riy matnning mazmuni, ruhiyati va emotsional xarakterini chuqur anglab olishi kerak. Har bir jumlada muallifning maqsadi, ichki kechinmalari va badiiy fikri mujassam bo'ladi. Ijrochi ana shu mazmunni his qilgan holda musiqiy ifoda vositalari orqali uni tinglovchiga yetkazadi. Agar matnning mazmuni to'liq anglanmasa, ijro sun'iy va hissiz bo'lib qoladi.

Musiqiy jummalarni badiiy talqin qilishda talaffuz, diksiya va mantiqiy urg'ular muhim ahamiyat kasb etadi. Har bir so'zning aniq va ravshan talaffuz qilinishi tinglovchining matn mazmunini to'liq qabul qilishiga yordam beradi. Mantiqiy urg'ular esa jumlaning asosiy ma'nosini ochib beradi va badiiy ta'sirchanlikni oshiradi. Ijrochi jumlalardagi muhim so'zlarni emotsional jihatdan ajratib kuylashi, ovoz tembri va dinamika orqali ularning ta'sir kuchini oshirishi zarur.

Emotsional talqin ijro jarayonining eng muhim jihatlaridan biridir. Har bir asar ma'lum hissiy holatni ifodalaydi: quvonch, sog'inch, iztirob, muhabbat, hayajon yoki falsafiy mushohada. Ijrochi ushbu hissiy holatlarni ichki kechinma orqali his qilgan holda kuylasa, tinglovchiga kuchli emotsional ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, lirik qo'shiqlarda mayinlik va samimiylilik, sho'x kuy-qo'shiqlarda esa jo'shqinlik va harakatchanlik muhim ahamiyat kasb etadi.



Jumlalarning badiiy talqinida sur'at, dinamika, agogika va intonatsiya vositalari ham muhim rol o'ynaydi. Sur'atning o'zgarishi, tovush kuchining oshishi yoki pasayishi, ayrim jumlalarning cho'zib yoki yumshoq ijro etilishi asarning emotsional ta'sirchanligini kuchaytiradi. Masalan, sokin va lirik xarakterdagi jumlar mayin ovoz bilan ijro etilsa, dramatik mazmundagi jumalarda kuchli dinamika va keng ovoz imkoniyatlari talab etiladi.

Asar matnini ifodali ijro etishda nafasni to'g'ri boshqarish ham muhim o'rin tutadi. Jumlalarning tabiiy va uzluksiz chiqishi nafasning to'g'ri taqsimlanishiga bog'liq. Ijrochi nafas olish joylarini oldindan belgilab, musiqiy jumlaning yaxlitligini saqlashi kerak. Bu esa jumlalarning ravon va ta'sirchan ijro etilishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Abdullayev R. Yakkaxon qo'shiqchilik. Darslik. - Toshkent-2021. B-21.

Muxammedova D. Folklor jamoa ijrochiligi. Toshkent-2018. 19 b.

1. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. – Toshkent: O'qituvchi, 1990.
2. Ismonova O. O'zbek to'y marosim folklorida "Kelin salom" janri (genezisi, o'ziga xos xususiyatlari va poetikasi): Filol. fanlari nomz. diss. – Toshkent, 1999.